# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 8

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 283 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar boʻyicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta oʻqituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,
**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan
**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation
**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute
**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE
**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE
**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan
**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE
**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute
**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction
**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey
**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA


Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish ........ 16
**Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna**

Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash ........ 20
**Shakarov Zafar Gafforovich**

Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему ........ 24
**С.С. Исмаилов**

"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili ........ 32
**Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich**

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari ........ 37
**Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li**

Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari ........ 41
**Sh.B. Donayev**

Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir ........ 45
**Xursandov Komiljon Maxmatkulovich**

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish ........ 49
**Idirisov Alisher Otajonovich**

Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari ........ 53
**Sultanov Maxmud Axmedovich**

Poverty in developing countries: new problems and solutions ........ 57
**Amirdjanova Sitora Sunnat kizi**

Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики ........ 61
**Вохидова Мехри Хасановна**

Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран ........ 69
**Буранова Лола Вахобовна**

Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi ........ 78
**Babamatov Tolib Xakimovich**

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ........ 83
**S.A.Karabayev**

O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari ........ 90
**Yusupov Aziz Shuxratovich**

Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi ........ 95
**Gulbayeva Feruza Islamovna**

Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ........ 102
**Sherov Alisher Bakberganovich**

Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili ........ 107
**Sayidova Maftuna Hamroqul qizi**

O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ........ 111
**Umarova Malika Baxtiyarovna**

Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций ........ 116
**Умида Юлдашева**

Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях ........ 120
**Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович**

Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish ........ 127
**Ismoilov Sherzod Dilshodovich**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari ........ 132
**Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li**

Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari ........ 138
**Sharipov Narzullo G'ulomovich**

O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi ........ 144
**Shadieva Madina Djaloliddin qizi**

Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari ........ 148
**Jumanazarova Z.K.**

Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri ........ 154
**Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich**

Oliygohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari ........ 158
**Adizov Sanjar Rashidovich**

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish ........ 165
**Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi**

Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме ........ 174
**Касимова Зилола Гуламиддиновна**

O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantrish ........ 182
**Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li**

Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане ........ 186
**Шахзод Сайдуллаев**

Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish ........ 192
**Ahmedov Komron Muhammadaliyevich**

Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili ........ 196
**Quyjanov Xurshid Abdullayevich**

Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari ........ 200
**Bakayev Xurshid Maxmudovich**

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati ........ 206
**Normurzayev Umid Xolmurzayevich**

Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства ........ 214
**Нурутдинова Зухра Алишеровна**

Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati ........ 220
**Madaminova Sanobar Askarovna**

Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari ........ 226
**Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li**

Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili ........ 230
**Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi**

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish ........ 234
**Uzakova Umida Ruziyevna**

O'zbekisonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari ........ 241
**Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li**

Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar ........ 247
**Boykabilov Bahodir Mustafayevich**

Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv ....... 251
**Ozoda Batirovna Sakiyeva**

Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari ....... 255
**N.N.Zikrillayev**

Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari ....... 263
**Saidova Dilfuza Abdufattohovna**

The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth ....... 268
**Almosova Shahnoza Sobirovna**

Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish ....... 273
**Israilov Rustam Ibragimovich**

Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari ....... 277
**D.D. Suvanova**

# KICHIK SANOAT ZONALARI KORXONA VA MAHSULOTLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV

**Sakiyeva Ozoda Batirovna**
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, PhD
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada kichik sanoat zonalari (KSZ) faoliyati Surxondaryo viloyati misolida o‘rganilgan. KSZlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportbop va import o‘rnini bosa oladigan mahsulotlar rivojlanish darajasini baholash uchun taksonomik tahlil usulini qo‘llashning nazariy uslubiyati keltirilgan. Shu asosda ilmiy xulosa va amaliy takliflar o‘rtaga tashlangan.

Kalit so‘zlar: kichik sanoat zonalari, taksonomik tahlil usuli, taksonomik ko‘rsatkich, baholash ko‘rsatkichlar tizimi, kuzatuvlar matritsasi, ko‘rsatkichning o‘rta arifmetik qiymati, ko‘rsatkichning standart og‘ishi, KSZ lar rivojlanish darajasi, rivojlanish etaloni.

Abstract: The article examines the activities of small industrial zones (SIZs) on the example of the Surkhandarya region. SIEs provide a theoretical methodology for using taxonomic analysis to assess the level of development of products that can replace exportbops and imports. On this basis, scientific conclusions and practical proposals were raised.

Key words: small industrial zones, method of taxonomic analysis, taxonomic indicator, assessment system, matrix of observations, arithmetic mean value of the indicator, normative weight of the indicator, level of development of small industrial zones.

Аннотация: В статье исследована деятельность малых промышленных зон (МПЗ) на примере Сурхандарьинской области. МПЗ предоставляют теоретическую методологию использования таксономического анализа для оценки уровня развития продуктов, которые могут заменить экспортбоп и импорт. На этой основе были подняты научные выводы и практические предложения.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, метод таксономического анализа, таксономический индикатор, система оценки, матрица наблюдений, среднее арифметическое значение показателя, нормативный вес показателя, уровень развития МПЗ.

## KIRISH

O‘zbekistonda ham xuddi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega ko‘pgina xorijiy mamlakatlardagi singari mahsulot sifatini boshqarish tizimini yaratish, takomillashtirish va sertifikatlashga e’tibor kuchayayotganligi kuzatilmoqda, sifatga nisbatan yangicha boshqaruv tafakkuri shakllanmoqda. Shu bois, sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda yanada chuqur tadqiqot olib borish hozirgi kunning dolzab masalasi sanalib, nafaqat ilmiy, balki, amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

Zamonaviy korxonalar faoliyatida raqobatbardoshlik tushunchasi muhim o‘rin tuta boshladi. Korxona raqobatbardoshligi nuqtayi nazaridan, uning bozorda talabga ega bo‘lish va muvaffaqiyatli bo‘lish, raqobatdosh firmalar bilan raqobatlashish va shunga o‘xshash mahsulotlarni etkazib beruvchi kompaniyalarga qaraganda ko‘proq iqtisodiy foyda olish qobiliyatini tushunish odatiy holdir. Umuman olganda, raqobatbardoshlik murakkab xususiyat bo‘lib, uni ko‘rsatkichlar to‘plami orqali ifodalash mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki va tashqi bozordagi o‘rnini aniqlash uchun uning raqobatbardoshligini baholash kerak. Kompaniyalar o‘tkazishi kerak bo‘lgan raqobatbardoshlikni baholash ko‘pincha intuitiv sezgilarga asoslanadi, ammo uni baholashni amalga oshirishga imkon beradigan va ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beruvchi bir qator ko‘rsatkichlarni tavsiflash orqali rasmiylashtirilishi mumkin. Kompaniya raqobatbardoshligini baholashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar har xil bo‘lib, ularning to‘plami qo‘llaniladigan baholash uslubiyatiga qarab farq qilishi mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

I.V.Gladisheva o‘z ilmiy ishida raqobatbardoshlik tushunchasiga quyidagi ta’rifni taqdim etadi: “Korxonaning o‘zining raqobat ustunligidan foydalanish darajasi va doimiy o‘zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashish imkoniyati bilan aniqlanadigan hamda har doim rentabellikni saqlab turgan holdagi kompleks xarakteridir”. E.V.Maksimova asarida quyidagi ta’rifni taqdim etadi. “Raqobat – bu subyektlarning musobaqalashuvi (tortishuvi) bo‘lib, musobaqada qarshilik ko‘rsatish va g‘oliblikni qo‘lga kiritishni esa raqobatbardoshlik deb atash mumkin”. Raqobatbardoshlik – bu afzalliklarni belgilovchi xususiyatlarga ega bo‘lish”. P.Zavyalovning yondashuvi o‘zgacha xarakterga ega, muallif fikriga ko‘ra “raqobatbardoshlik – bu mamlakatning tovar va xizmatlarda amalga oshirilgan hamda tashqi va ichki bozorlarda raqobatchi analoglariga qarshilik ko‘rsatadigan iqtisodiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, marketing va boshqa imkoniyatlari ifodasidir”.

Korxona raqobatbardoshligi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning etarli sharti hisoblanadi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish esa raqobatbardosh korxona shakllanishining va korxona raqobatbardoshligini ta’minlashning zaruriy shartidir. Ko‘pgina olimlar korxona raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillarni korxona bilan bog‘liqligiga qarab, tashqi va ichki omillarga ajratadilar. N.V.Zyablitskaya fikriga ko‘ra korxona raqobatbardoshligiga ta’sir qiluvchi omillar ikkiga, ya’ni tashqi va ichki omillarga bo‘linadi. Ichki omillar – korxonaning o‘z raqobatbardoshligini ta’minlash imkoniyatlarini belgilovchi obyektiv mezonlar bo‘lib, quyidagilar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: marketing salohiyati, xizmatlar, ilmiy va texnik xodimlar, kadrlar salohiyati, moliyaviy-iqtisodiy salohiyat, moddiy-texnik ta’minot darajasi va boshqalar. Tashqi omillar – ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar bo‘lib, korxonaga narx va narxdan tashqari xarakteristikalar bo‘yicha yanada jozibador bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Tashqi omillarga davlatning iqtisodiy va ma’muriy xarakterga ega chora-tadbirlari, bozorning o‘ziga xos xususiyatlari, davlat va nodavlat muassasalari faoliyati, siyosiy partiyalar faoliyati, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat kabilar kiradi. Mahsulot raqobatbardoshligining barcha omillarini uch toifaga bo‘lish mumkin: tovar xususiyatlari bo‘yicha korxona raqobatbardoshlik darajasi, bozor parametrlari bozor sharoitlari bo‘yicha korxona raqobatbardoshlik darajasi va mavjud resurslar bo‘yicha kompaniya raqobatbardoshlik darajasi korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini aniqlaydigan omillar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

– korxona mahsulotining tashqi imidjini oshirishi;
– korxonaning daromadini oshirishi;
– bozorning mahsulot bilan to‘la qonli qoniqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

KSZlar faoliyati samaradorligi darajasi oshishi iqtisodiy o‘sishni aniqlovchi vektor hisoblanadi, bunda samaradorlik darajasini tahlil jarayoni tizimli xarakterga ega bo‘lishi lozim. Bugungi kunda amaliyotda korxona yoki tashkilotlar raqobatbardoshligini baholashning bir qancha usullari ishlab chiqilgan va amaliyotga qo‘llanib kelinmoqda. Ko‘p hollarda bu usullar korxona faoliyatining aniq bir jihatini xarakterlovchi bir xil turdagi ma’lumotlardan foydalaniladi. Bunday ko‘rsatkichlar asosidagi tahlil korxonaning bozordagi o‘rnining to‘liq tavsifini berolmaydi. Bunday holda korxona faoliyati asosiy jihatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini tavsiflovchi usulni qo‘llash zarurati paydo bo‘ladi.

Bu muammoni hal qilishning echimlaridan biri iqtisodiy izlanishlarda taqqoslashning ko‘p o‘lchovli tahlil usullaridan foydalanish hisoblanadi. KSZlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportbop va import o‘rini bosa oladigan mahsulotlar rivojlanish darajasini baholash uchun taksonomik tahlil usulini qo‘llashda, avval baholanayotgan KSZlar mahsulotlarini baholash uchun kuzatuvlar jadvali tuzib olindi. U baholanayotgan KSZ mahsuloti sifat ko‘rsatkichlarini aniqlovchi sonli qiymatlardan iborat bo‘ladi. Jadvalda Surxondaryo viloyatida qurilish korxonalarida ishlab chiqarilgan g‘isht mahsulotlari sifat ko‘rsatkichlari va iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida foydalilik (rentabellik) koeffitsiyenti olingan.

Korxonaning atrof-muhit omillariga bevosita ta’sir qilish imkoniyatlari juda cheklangan, chunki ular, asosan, korxonaga nisbatan obyektiv harakat qiladi. Korxona raqobatbardoshligini ta’minlashning real imkoniyatlari ichki muhit omillari sohasidadir. Biroq bu omillar turli darajadagi samaradorlik bilan ta’sir qilishi mumkin. Shunday qilib, qoida tariqasida, katta investitsiyalar va uzoq o‘zini qoplash muddati ishning texnik va texnologik sharoitlarida innovatsion o‘zgarishlarni talab qiladi. Mahsulot raqobatbardoshligini baholashda bundan tashqari innovatsion omilga bog‘liq ko‘rsatkichlarni kiritish maqsadga muvofiq.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatidagi KSZ larida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlari raqobatbardoshligini baholash maqsadida taksonomik tahlil usulini qo‘llash uslubiyatini qarab chiqamiz. Buning uchun Surxondaryo viloyatidagi KSZlarda bir xil mahsulot, ya’ni g‘isht ishlab chiqaruvchi 10 ta korxonalar olinib, ular

mahsulotlari sifat sertifikatlariga asoslanib, sifat ko'rsatkichlari: suv singdiruvchanligi(%), o'rtacha zichligi(kg/m³), siqilishga mustahkamligi (Mpa), egilishga mustahkamligi (Mpa) hamda iqtisodiy ko'rsatkichi sifatida foydalilik koeffitsiyenti olingan (1-jadval).

1-jadval. Surxondaryo viloyatida qurilish korxonalarida ishlab chiqarilgan g'isht mahsulotlari sifat ko'rsatkichlari

| № | Korxonalar nomi | Suv singdiruv chanligi (%) | O'rtacha zichligi (kg/m³) | Siqilishga mustahkam ligi (Mpa) | Egilishga mustahkamligi (Mpa) | Foydalilik koeffitsiyenti |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | "Surxon keramiks" MCHJ | 16,3 | 1375 | 12,3 | 1,8 | 1,1325 |
| 2 | "Janub Surxon g'isht" MCHJ | 9,9 | 1690 | 8,2 | 1,93 | 1,533573 |
| 3 | "Nurillo Islomobod" XK | 10,8 | 1656 | 7,88 | 1,89 | 1,716559 |
| 4 | "Niyoz tosh nur" MCHJ | 11,3 | 1643 | 8,08 | 1,91 | 1,182796 |
| 5 | "Abdualim invest" XK | 15,1 | 1633 | 8,4 | 1,96 | 1,47331 |
| 6 | "Barpo-Invest" MCHJ | 10,8 | 1750 | 9,4 | 1,94 | 1,352817 |
| 7 | "Boysun Gayrat" MCHJ | 10,2 | 1650 | 9,2 | 1,9 | 1,876923 |
| 8 | "Iqbol ko'l balig'i" x/к | 10,4 | 1695 | 8,05 | 1,82 | 1,649398 |
| 9 | "Shurchi sifat barpo" XK | 10,7 | 1660 | 7,82 | 1,92 | 1,50156 |
| 10 | "Binafsha" xf | 16,2 | 1712 | 8,02 | 1,88 | 1,033523 |

Taksoomik tahlil usuli algoritmi asosida quyidagilar aniqlandi.
k= 5 bo'lib, ko'rsatkich uchun o'rta arifmetik qiymatlari

$$x_1=12.17;\ x_2=1646.4;\ x_3=8.74;\ x_4=1.9;\ x_5=1.45$$

aniqlandi. k ko'rsatkichning standart og'ish qiymatlari aniqlandi:

$$S_1=2.464;\ S_2=96.664;\ S_3=1.294;\ S_4=0.048;\ S_5=0.257$$

Tanlangan sifat va iqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy omil bo'lganligi sababli,

$$Z_{01}=1.676;\ Z_{02}=1.072;\ Z_{03}=2.755;\ Z_{04}=1.348;\ Z_{05}=1.682$$

$Z_0=(z_{01}, z_{02}, z_{03}, z_{04}, z_{05})$ vektori qiymatlari aniqlanadi.

Har bir korxona yoki mahsulot rivojlanish etaloni orasidagi farqlar:

$$q_1=5.872;\ q_2=4.399;\ q_3=4.483;\ q_4=4.937;\ q_5=3.642;\ q_6=3.788;$$
$$q_7=3.806;\ q_8=5.105;\ q_9=4.566;\ q_{10}=4.966.$$

hisoblandi va korxona yoki mahsulot rivojlanish etaloni orasidagi o'rtacha mutlaq farqi: $\bar{q}_0=4.556$. aniqlandi. O'tacha mutlaq farq og'ish qiymati:

$F_0=0.661$ aniqlandi.

Rivojlanish etalon qiymatiga maksimal mumkin bo'lgan masofa

$R0=5.878$ ga teng ekan.

Endi har bir korxona yoki mahsulot uchun rivojlanish darajasi ko'rsatkichini alohida hisoblanib, u orqali raqobatbardoshlik koeffitsiyenti (RK) aniqlanadi.

Rivojlanishning taksonomik ko'rsatkichi (raqobatbardoshlik koeffitsiyenti) ning qiymati 0 dan 1 gacha ($0 \le K \le 1$) oralig'ida qiymatlarni qabul qilishi mumkin. U qanchalik baland bo'lsa, KSZ faoliyati samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Hududiy KSZlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning import o'rnini bosuvchi va eksportbopligini, ya'ni raqobatbardoshligini baholashda taksonomik tahlil usulidan foydalanib, Surxondaryo viloyatidagi KSZdagi korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarning raqobatbardoshlik koeffitsiyenti (RK) aniqlangan va u orqali korxona mahsulotlari raqobatbardoshligini "kuchsiz" (RK≤0.1), "o'rta" (0.1<RK≤0.3), "kuchli" (0.3<RK≤0.5) va "o'ta kuchli" (0.5<RK<1) darajalar asosida baholangan.

3-jadval. Surxondaryo viloyatida qurilish korxonalarida ishlab chiqarilgan g'isht mahsulotlari raqobatbardoshlik koeffitsiyentlari jadvali.

| № | Korxona nomlari | RK qiymati |
|---|---|---|
| 1 | "Surxon keramiks" MCHJ | 0,000941 |
| 2 | "Janub Surxon g'isht" MCHJ | 0,25161 |
| 3 | "Nurillo Islomobod" XK | 0,237342 |
| 4 | "Niyoz tosh nur" MCHJ | 0,160021 |
| 5 | "Abdualim invest" XK | 0,380423 |
| 6 | "Barpo-Invest" MCHJ | 0,355487 |
| 7 | "Boysun  Gayrat" MCHJ | 0,352444 |
| 8 | "Iqbol ko'l balig'i" х/к | 0,131449 |
| 9 | "Shurchi sifat barpo" XK | 0,22317 |
| 10 | "Binafsha" xf | 0,15516 |

Demak, tahlil qilinayotgan g'isht mahsulotlari orasida "Abdualim invest", "Barpo-Invest", "Boysun Gayrat" korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar RK lari (0.3<RK≤0.5) oraliqda bo'lganligi uchun raqobatbadoshligi kuchli, "Janub Surxon g'isht", "Nurillo Islomobod", "Shurchi sifat barpo", "Niyoz tosh nur", "Binafsha", "Iqbol ko'l balig'i" korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar RK lari (0.1<RK≤0.3) oraliqda bo'lganligi uchun raqobatbadoshligi "o'rta", "Surxon keramiks" korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar RK lari (0RK≤0.1) oraliqda bo'lganligi uchun raqobatbadoshligi "kuchsiz" darajada ekanligi baholandi.

Bu ko'rsatkich ko'p sonli xususiyatlarga ega obyektlarni solishtirish va ularni rivojlanish darajasiga ko'ra tartiblash imkonini beradi. Taksonomik usulning asosiy afzalligi standartlashtirish jarayonidir, buning natijasida obyektning har xil tasvirlangan sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar xususiyatlari yagona standartlashtirilgan o'lchov tizimiga aylantiriladi, bu esa foydalanish qulayligi bilan uning keng qo'llanilishiga imkon yaratadi.

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Hududlarda tashkil etilgan kichik sanoat zonalari korxonalari yoki ularning ishlab chiqargan mahsulotlari raqobatbardoshligini maxsus ko'rsatkichlar tizimiga asoslangan holda respublika miqyosida, viloyatlar kesimida, keyinchalik har bir viloyatda tumanlar kesimida baholash hamda tahlil qilishni tashkil etish mintaqaviy hokimiyat organlari bilan birga KSZ ishtirokchisi (ijarachi yoki loyiha egasi) uchun ham qiziqish uyg'otadi, taksonomik tahlilning korxonalar faoliyatida qo'llanilishi o'rganilayotgan korxonalardagi iqtisodiy vaziyatni, uning rivojlanish yoki inqiroz darajasini oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, korxonalar, tadbirkorlik subyektlari uchun juda aniq va maqsadli strategik rejalar tuzish, salbiy inqirozning paydo bo'lishining oldini olish, kichik sanoat zonalarida birlashgan korxonalarni samarali boshqarish, doimiy nazoratni amalga oshirish, stimulyatorlarning simptom komponentlari qiymatini oshirish va disstimulyatorlarning simptom komponentlarini yo'q qilish, tegishli texnik, iqtisodiy va boshqaruvni amalga oshirishda yordam beradi hamda raqobatbardosh (import o'rnini bosuvchi, eksportbop) mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadigan strategiya va taktikani ishlab chiqish uchun zarur boshqarish qarorlarini tezda qabul qilish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Сакиева, О. Б. (2023). Кичик саноат зоналари фаолияти самарадорлиги мониторингини ташкил қилиш ва уларни баҳолаш кўрсаткичлар тизими. Gospodarka i Innowacje., 35, 608-614.
2. Сакиева, О. Б. (2024). Факторы, влияющие на выбор места размещения малых промышленных зон и экономико-математическая модель его оптимизации. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(1), 286-292. Максимова Е.В. Проблемы обеспечения конкурентоспособности предприятий. Экономические реформы в России. Материалы III международной научно-практической конференции. – СПб.: Нестор, 2000. – 520 с.
3. Гладышева И. В. Прогнозирование конкурентоспособности промышленного предприятия. –Автореф. дисс. на соиск. уч. степ, канд. экон. – Наук. СПб., 2006
4. Максимова Е.В. Проблемы обеспечения конкурентоспособности предприятий. Экономические реформы в России. Материалы III международной научно-практической конференции. – СПб.: Нестор, 2000. – 520 с.
5. Завялов П. Конкурентоспособност в экономической политике стран // Маркетинг. – 1996. – №2. – С.22.
6. Э.А. Круг. Факторы, влияющие на конкурентоспособност предприятий: позиции разных авторов Вестник Алтайского государственного аграрного университета № 10 (48), 2008
7. Зяблицкая Н.В., Конкурентоспособност предприятия "Экономика и социум" №5(96)-1 2022
8. Болодурина В.А Методы оценки конкурентоспособности предприятия. Международный научно-исследователский журнал – № 11 (42) . – Част 1. – декабрь.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.